

O'ZBEKISTON MIGRATSIYASI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR**Abduraxmonova Sarvinoz Toshboy qizi***O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
2-bosqich talabasi*

Kalit so'zlar: Migratsiya, mehnat migratsiyasi, remittensiyalar, brain drain, migrantlarning integratsiyasi, O'zbekiston, IOM, World Bank.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston kontekstida migratsiyaning ijobiy va salbiy tomonlari ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada so'nggi yillarning statistik ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan hisobotlar va iqtisodiy hamda ijtimoiy ta'sirlar asosida migratsiyaning mamlakat uchun imkoniyatmi yoki muammo ekanligi baholanadi. Shuningdek, muammolarni kamaytirish va imkoniyatlarni ko'paytirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Keywords: *Migration, labor migration, remittances, brain drain, migrant integration, Uzbekistan, IOM, World Bank.*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of the positive and negative aspects of migration in the context of Uzbekistan. It evaluates whether migration represents an opportunity or a challenge for the country, based on recent statistical data, reports from international organizations, and the economic and social impacts of migration. The article also presents recommendations for reducing problems and enhancing opportunities associated with migration.*

Ключевые слова: *Миграция, трудовая миграция, денежные переводы, утечка мозгов, интеграция мигрантов, Узбекистан, МОМ, Всемирный банк.*

Аннотация: *В данной статье проводится научный анализ положительных и отрицательных аспектов миграции в контексте Узбекистана. На основе последних статистических данных, отчетов международных организаций, а также экономического и социального воздействия миграции оценивается, является ли миграция возможностью или проблемой для страны. Также представлены рекомендации по снижению проблем и увеличению возможностей, связанных с миграцией.*

Migratsiya bugungi kunda O'zbekiston jamiyatining har bir oilasi, har bir mahallasi va umuman butun mamlakat hayotiga singib ketgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir; yuz minglab yurtdoshlarimiz har yili og'ir chamadonlar bilan chet elga yo'l olishadi, yuragida esa "Men ketayapman, ammo bu yo'l meni qayerga olib boradi? Qachon jonajon uyimga qaytaman?" degan savollar bor. Ba'zilar umid bilan, ba'zilar majburiyat bilan, yana boshqalar orzularining ortidan chiqadi ularning har biri uchun migratsiya birinchi navbatda yangi imkoniyatlar va sinovlarning uyg'unlashuvi hisoblanadi. Chet elga ketganlar oilasiga yo'l-yo'riq, mablag' yuboradi, uy-joy barpo etadi, farzandlarini o'qitadi va shu orqali o'zining tug'ilib

o'sgan yurtidagi ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka sezilarli hissa qo'shadi; remittensiyalar tufayli ko'plab oila daromadi oshadi, iste'mol va investitsiyalar rag'batlanadi. Bunday ijobiy natijalarga qo'shimcha ravishda, xorij tajribasi til, kasbiy ko'nikmalar va mehnat madaniyatini o'zlashtirish migrantlar qaytgach mahalliy bizneslar va xizmatlarda innovatsiyalar va samaradorlikni oshirishga imkon beradi, shu jumladan Janubiy Koreyada ishlagan yurtdoshlarimiz o'rgangan texnik bilimlarni O'zbekistonda kichik biznes yoki konsalting xizmatlariga aylantirmoqdalar; ular Koreyada o'qish yoki ishlashni xohlovchi talabalar uchun hujjat tayyorlash, viza olish va adaptatsiya bo'yicha yordam ko'rsatish kabi xizmatlar tashkil qilib, ikki tomonlama tarmoq va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, migratsiyaning ikkinchi, ko'pincha qorong'i tomoni ham mavjud: chet elga chiqqan ko'plab fuqarolar begona til, madaniyat va qonunlar o'rtasida qiynaladi, ularning ayrimlari og'ir va uzoq ish soatlarida, huquqiy himoyasiz ishlashga majbur bo'ladi; eng og'riqli jihati esa sog'inch va oilaviy ajralishlardir: yillar davomida bolalarini ko'rmaydigan otalar, ota-onasining mehrini sog'ingan farzandlar va o'z o'rnini, o'zligini yo'qotib qolgan insonlar ruhiy sinovlarga duch keladi. Bundan tashqari, malakali ishchi kuchining katta hajmda mamlakatni tark etishi "brain drain" O'zbekiston ichidagi ayrim sohalarda kadrlar yetishmasligiga olib kelib iqtisodiy rivojlanish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Ko'pchilik yurtdoshlarimizni chet elga ketishga majbur qilayotgan asosiy omillar orasida ichki ish o'rinlarining yetishmasligi, ish haqining pastligi, barqaror daromad topish istagi, hamda rivojlangan davlatlarda ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya va transport infratuzilmasining yaxshiligi mavjud; natijada uzoq muddat chet elda yashash ba'zi hollarda milliy o'zlik va madaniy qadriyatlarning susayishiga olib keladi, bu esa vatanga qaytgach moslasha olmaslik muammolarini keltirib chiqaradi va jamiyatda ijtimoiy tafovutlarni kuchaytiradi. Shu bois migratsiyaning muammo sifatida emas, balki boshqarilishi va rejalashtirilishi lozim bo'lgan jarayon sifatida ko'rish zarur; davlat tomonidan migrantlar uchun qulay huquqiy tizim, malaka oshirish markazlari, psixologik va huquqiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini tashkil etish orqali bu jarayon imkoniyatga aylanishi mumkin. Bunda asosiy vazifa ketayotganlarni ayblash emas, ularni himoya qilish, ularning tajribasidan o'rnak olish va ichki muhitda ham imkoniyatlar yaratish orqali "ketish kerak" degan fikrni kamaytirish, aksincha "qolish va mamlakatni rivojlantirish foydaliroq" degan qarashni shakllantirishdir. Amaliy choralar qatoriga rasmiy ma'lumotlarni yaxshilash va migratsiya oqimlarini monitoring qilish, chet elda ishlayotganlarga maslahat va huquqiy yordam ko'rsatish, qaytib kelganlar uchun reintegratsiya va malaka oshirish dasturlarini joriy etish, malaka transferini rag'batlantirish grantlar, kreditlar yoki startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali qaytib kelganlarning g'oyalarini amaliy biznes loyihalariga aylantirish kiradi. Shuningdek, qabul qiluvchi davlatlar bilan mehnat sharoitlari va huquqiy kafolatlar bo'yicha bilateral kelishuvlar tuzish, migrantlar huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro standartlarga muvofiq mexanizmlar yaratish zarur. Oxir-

oqibat, migratsiya nafaqat geografik harakat, balki insonning ruhiy va ijtimoiy safaridir: u odamlarni sinaydi, ammo shuningdek o'stiradi ham. Agar migratsiya qonuniy, maqsadli va ma'lumotli tarzda amalga oshirilsa, u imkoniyatga aylanadi; agar esa xuquqiy himoya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va mamlakat ichidagi imkoniyatlar yetarli bo'lmasa, u muammolarga sabab bo'ladi. Shu sababli, har bir fuqaro chet elga ketishdan avval iqtisodiy manfaat bilan bir qatorda oilaviy, ma'naviy va ijtimoiy mas'uliyatlarni ham chuqur anglab olishi, davlat va jamiyat esa migrantlarni himoya qilish, ularning qaytishi va o'z bilimlarini yurt ravnaqiga yo'naltirish imkoniyatlarini yaratishi shart; shunda migratsiya sinov yo'li bo'lib qolmay, balki milliy taraqqiyotning bir qismiga aylanadi va kimdir unda yo'qolmay, balki topiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gazeta.uz. (2025, 24-yanvar). Remittances to Uzbekistan reach nearly \$15 billion in 2024.
<https://www.gazeta.uz/en/2025/01/24/remittances/>
2. Times of Central Asia. (2025, 21-yanvar). Uzbekistan Receives \$14.8 Billion in Remittances in 2024.
<https://timesca.com/uzbekistan-receives-14-8-billion-in-remittances-in-2024/>
3. World Bank. (2024). Migration and Remittances Factbook 2024: Uzbekistan Country Note.
<https://data.worldbank.org/indicator/BX.TRF.PWKR.DT.GD.ZS?locations=UZ>
4. Gazeta.uz. (2025, 22-yanvar). Number of labor migrants from Uzbekistan abroad drops to 698,000.
<https://www.gazeta.uz/en/2025/01/22/migrants/>
5. Kun.uz. (2025, 18-yanvar). South Korea reduces Uzbek migrant intake amid job abandonment concerns.
<https://kun.uz/en/news/2025/01/18/south-korea-reduces-uzbek-migrant-intake>
6. International Organization for Migration (IOM). (2024). Uzbekistan Migration Situation Report (Quarterly 2024).
<https://uzbekistan.iom.int/>
7. International Monetary Fund (IMF). (2024). Uzbekistan: Economic Outlook and Labor Market Challenges.
<https://www.imf.org/en/Countries/UZB>
8. Jahon Banki (World Bank). (2024). Remittances, Migration and Development: Economic Impacts for Uzbekistan.
<https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports>
9. ILO (International Labour Organization). (2023). Labour Migration Governance in Central Asia: Uzbekistan Country Profile.
<https://www.ilo.org/global/topics/labour-migration>

10. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi.
(2024). Mehnat migratsiyasi bo'yicha rasmiy hisobot.
<https://mehnat.uz/>